

**Ta'lim jarayonida samaradorligini oshirishda Microsoft Power Point
dasturi imkoniyatlaridan foydalanish**

R. Madaminov, M. Avezov - Ajiniyoz nomidagi NDPI

Ta'limda axborot texnologiyalarini mutaxassisligi 2-kurs magistranti

XXI asr – axborot texnologiyalari asri hisoblanadi. Fan va texnika jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda, ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanib dars o'tish zamon talabi hisoblanadi. Kelajagimiz bo'lgan yoshlarni yuksak ma'naviyatli, barkamol, har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda, dars samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.

Ta'limda axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llaganda o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida bu texnologiyalardan foydalanganda biz ko'pincha prezentatsiyalardan foydalanamiz.

Microsoft Power Point – universal, imkoniyatlari keng, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videoroliklar va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi. U Microsoft firmasining Windows qobig'i ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay dastur riy vositalardan biridir. Dasturdagi asosiy tushunchalar-slayd va prezentatsiyadir.

Slayd- ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqat varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.


Prezentatsiya (taqdimot)- yaratilayotgan slaydlar turkumiga uning namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi.

Dars jarayonining qiziqarli va o'quvchilarning darsganisbatan qiziqishlarini o'rttirish yo'libil Power Point dasturi haqidagi bilimlarni mustahkamlashda ushbu dasturning qo'shimcha imkoniyatlaridan foydalangan holda turlari xil tez korsavol-javoblarni ko'rsatish, sanoq sistemalar ustida amallar bajarish va hisob-kitob amalga oshirish uchun kalkulyator yaratishimiz mumkin.


Power Point dasturida oddiy kalkulyator yaratish uchun biz Visual Basic (VB) dasturlashtirilgan foydalanamiz. Buning uchun kompyuteringizga Visual Basic dasturlashtirilgan o'rnatish shart emas, sizning kompyuteringizda Microsoft Office dasturi o'rnatilganligi yetarli hisoblanadi. Office dasturlarining istalgan elementi uchun Visual Basic kodini yozish mumkin. Masalan, MS Excel elektron jadval muharriri yozilgan Visual Basic kodini Word matn muharriri uchun yoki Visual Basic avtonom dasturi yozilgan koddan Office dasturining istalgan elementi da foydalanish mumkin.

Ishniboshlash uchun Пуск – “Все Программы” – “Microsoft Office” – “Microsoft Power Point 2010” buyruqlaribajariladi (Biz buyerda MS Office 2010 dan foydalandik).

Power Point dasturi ishga tushgandan keyin menyular qatoridan Разработчик menyusini tanlaymiz.: (agar menyular qatorida yo`q bo`lsa, menyular qatorining bo`sh qismida sichqonchao`ng tugmasini bosib, Настройка ленты bo`limiga belgi qo`yib chiqarishimiz mumkin)



Hosil bo`lgan muloqot oynasida biz gakerak bo`lgan bo`lim qizil to`rtburchak ichida belgilab ko`rsatilgan. Bo`limdan **A** (Label) belgisi ustida sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosamiz. Oynada Label1 paydo bo`ladi. Label dan unga kerakli yozuvlarni yozish uchun foydalanamiz. Bizga kalkulyator yaratish uchun 4 ta Label kerak bo`ladi va bu Label larga nom berishimiz zarur bo`ladi. Buning uchun Label1 ustiga sichqonchani bo`sh tugmasini bosamiz, Объект label -Edit ni tanlaymiz va unga “A sonni kiriting” deb yozamiz. Boshqa label larni ham shu tarzda “B sonni kiriting”, “Natija” deb nomlaymiz, oxirgisiga Label4 ga natijalarni chiqarish uchun bo`sh qoldiramiz. Bizga yana 2 ta TextBox va 5 ta CommandButton kerak bo`ladi. Buning uchun mos ravishda  va  belgilarini tanlaymiz. TextBox sonlarni kiritish uchun ishlatiladi. Unga hech qanday o`zgartirish kiritmaymiz. CommandButton larni ham yuqoridagi usulda mos ravishda “Qo`shish”, “Ayirish”, “Ko`paytirish”, “Bo`lish”, “Yangilash” deb nomlaymiz. Ularni quyidagi shaklda joylashtiramiz:



Bunda ob`yektlardagi o`zgarishlarni ularning ustida sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosgan holda hosil bo`lgan Microsoft Visual Basic for Applications oynasida o`zgartirishimiz mumkin. “Qo`shish” ning ustiga sichqoncha tugmasini ikki marta bosamiz. Hosil bo`lgan oynada quyidagi kod hosil bo`ladi:

Private Sub CommandButton1_Click()

End Sub

Biz ikkikodorasigaquyidagikodniyozamiz: *Label3.Caption = Str(Val(TextBox1.Text) + Val(TextBox2.Text))*. Boshqa “Ayirish”, “Ko`paytirish”, “Bo`lish” largamosravishda

“*Label3.Caption = Str(Val(TextBox1.Text) - Val(TextBox2.Text))*”,

“*Label3.Caption = Str(Val(TextBox1.Text) * Val(TextBox2.Text))*”,


“*Label3.Caption = Str(Val(TextBox1.Text) / Val(TextBox2.Text))*”.

“Yangilash” gaesa

TextBox1.Text = ""

TextBox2.Text = ""

Label3.Caption = "" kodlariniyozamiz.



```
Kalkulyator - Slid1 (Code)
CommandButton1 Click
End Sub

Private Sub TextBox2_Change()
End Sub

Private Sub CommandButton1_Click()
Label3.Caption = Str(Val(TextBox1.Text) + Val(TextBox2.Text))
End Sub

Private Sub CommandButton2_Click()
Label3.Caption = Str(Val(TextBox1.Text) - Val(TextBox2.Text))
End Sub


Private Sub CommandButton3_Click()
Label3.Caption = Str(Val(TextBox1.Text) * Val(TextBox2.Text))
End Sub

Private Sub CommandButton4_Click()
Label3.Caption = Str(Val(TextBox1.Text) / Val(TextBox2.Text))
End Sub
```

Slydgaharxilrasmlarqo`yibbezatamiz, keraklidizaynnitanlaymiz. “Chiqish”
gadasturdanchiqishuchun“gipermurojaat”qo’yamiz:



Endi uni “saqlash” kerak. Файл менуусидан Сохранить как buyrug’ini tayanlaymiz, unga nom berib Демонстрация Power Point поддежкой макросов tipida saqlaymiz.



Uni ishga tushiramiz. TextBoxlarga istalgan ikkitas onni kiritamiz.

“Qo’shish” ni bossak bu kiritilgan ikkitas onning yig’indisini chiqarib berdi. Mosravishda “Ayirish”, “Ko’paytirish”, “Bo’lish” larni bossak, busonlar ayirmasi, ko’paytmasi va bo’linmasini chiqarib beradi. Yangi dansonlarni kiritmoqchi bo’lsak “Yangilash” tugmasini bosamiz. Bu yerga o’nliliklar ko’rinishidagi sonlarni ham kiritishimiz mumkin. Buning uchun “.” belgisidan foydalanib kiritishimiz mumkin. Bu kalkulyatorni boshqa amallarni bilani ham boyitishimiz mumkin.

Darsjarayonidabundayko'rgazmalivositalarvaprezentatsiyalarningqo'shimchaimkoniyatlaridanf
oydalanishvaturlixilqiziqarlidasturiyamallarnibajarishorqalio'quvchilarningmavjudbilimlarinioshish,
rivojlantirishvayanadamustahkamlashningsamaraliusullaridanbiri deb hisoblaymiz.

Foydalanilganadabiyotlar

1. Самоучитель VisalBasic 2005 Д. Шевякова, А. Степонов, А.КарповСанк-Петербург 2006
2. ХоревВ.ДСамоучительпрограммированияна VBA в Microsoft Office Киев "ЮНИОР"
2001
3. Informatika darslarida ilg'or pedagogik texnologiyani qo'llash usullari"(metodik tavsiya)
Navoiy 2014. Navoiy viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish instituti.